

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining
Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya) Tushumlarni monitoring qilish
va undirishga qaratish boshqarmasi, Tushumlar va hisobotlarni monitoring qilish,
yirik sanoat korxonalari bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi (davlat katta
ekologiya inspektori) lavozimiga qo‘yiladigan
MALAKA TALABLARI**

Bosh mutaxassis		
Ma'lumot	Nomzod iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi va audit yoki turdosh mutaxassisliklardan biri bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi lozim.	
Mutaxassislik		
Mehnat staji	Nomzodning umumiy mehnat staji kamida (3) uch yilni tashkil etishi shart. Shundan bir yili moliyaviy tahlil, soliq va yig'imlar monitoringi yoki hisobot sohasida ish stajiga ega bo'lishi lozim.	
Davlat tilini bilishi	Nomzod davlat tilini mukammal darajada bilishi, xizmat faoliyatini davlat tilida yuritish, rasmiy hujjatlar bilan ishlash hamda ish yuritish qoidalariga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi shart.	
Xorijiy tilni bilish darajasi	Nomzod xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro darajada tan olingan sertifikatlariga ega bo'lishi afzal hisoblanadi.	
Kompyuter savodxonligi	Kompyuter savodxonligi bo'yicha nomzod zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan moliyaviy hisobot va tushumlar monitoringi tizimlaridan samarali foydalana olishi, MS Office dasturlar paketi, ayniqsa Excel dasturi bilan mukammal ishlay olishi hamda Internet tarmog'idan xizmat vazifalarini bajarishda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	
Qo'shimcha talablar	ekologik to'lovlar va yig'imlar bo'yicha tushumlar monitoringini yuritish va tahlil qila olishi; yirik sanoat korxonalari bilan hamkorlikda ishlash, ularning ekologik to'lovlar bo'yicha majburiyatlari bajarilishini nazorat qilishi; tushumlarni undirish tartib-taomillarini bilishi, undirilmagan majburiyatlar bo'yicha choralar ko'ra olishi; moliyaviy va statistik hisobotlarni tahlil qilish, umumlashtirish hamda tegishli xulosalar tayyorlay olishi; ma'muriy choralar, jarimalar va ta'sir choralarini qo'llash tartibini bilishi; hududiy ekopolitsiya bo'linmalari va yirik sanoat korxonalari bilan yozishmalar, xizmat xatlari va boshqa rasmiy hujjatlarni sifatli tayyorlay olishi; tushumlar va hisobotlar bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotnomalarni boshqarma boshlig'iga o'z vaqtida taqdim eta olishi;	

	xizmat ma'lumotlari va maxfiy axborotlar bilan ishlashda qonunchilik talablari va ichki tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilishi talab etiladi.	
--	--	--

Mazkur lavozim belgilangan tartibda 5 (besh kun muddatda) tanlovga chiqariladi (29-07-03.08.2026).

Mazkur vakant lavozimga quyida keltirilgan elektron pochta orqali hujjat topshirishlaringiz mumkun.

Murojaat uchun 71 207 07 70 (3030)